Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA

UDK 372.22:371.1(045)
ORCID: 0009-0005-9414-1860

BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INKLYUZIV TA'LIM SAMARADORLIGINI TASHKIL ETISH USULLARI

SHAXMURADOVA DILJAXON ALMARDANOVNA
ATMU Pedagogika kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: diljahonshaxmuradova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola biz boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi ahamiyati tadqiq qilingan. Unda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning fikrlari umumlashtirilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirish tamoyillari, nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslangan. Shuningdek, inklyuziv ta'limda o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning zaruriyati va usullari haqida batafsil ma'lumot beradi. Mamlakatimizda inklyuziv ta'lim tizimini joriy etishning zarurati, mazkur tizimni joriy etish oldida turgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bayon etilgan. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limdagi inklyuziv ta'limga jalb qilingan bolalarni erkin fikrlay olishga, noan'anaviy mashg'ulotlarni tashkil etishning mazmun - mohiyati haqida fikr yuritiladi. Ta'lim jarayonida alohida yordamga muhtoj bolalarning imkoniyatlaridan foydalanishning ahamiyati yoritilgan va tahlil etilib tavsiyalar berilgan. Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, tarbiya, kasbiy kompetensiya, so'rovlar, kuzatuvlar, pedagogik resurslar, kasbiy ehtiyoj.*

МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В статье рассматривается важность совершенствования методической подготовки и повышения квалификации учителей начальной школы как научно-педагогической проблемы. Обобщены взгляды зарубежных и отечественных исследователей. Научно обоснованы принципы, теоретико-педагогические аспекты повышения квалификации учителей начальной школы. Также представлена подробная информация о необходимости и методах развития профессиональных компетенций учителей в сфере инклюзивного образования. Обоснована необходимость внедрения в нашей стране системы

инклюзивного образования, описаны проблемы, возникающие при ее внедрении, и пути их преодоления. Рассматриваются содержание и сущность организации нетрадиционных занятий, позволяющих детям, вовлеченным в инклюзивное образование в дошкольном и начальном звене, свободно мыслить. Подчеркнута и проанализирована важность использования возможностей детей, нуждающихся в особой помощи, в образовательном процессе, и даны рекомендации. Вопрос образования детей с ограниченными возможностями здоровья становится одним из наиболее актуальных на сегодняшний день.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, воспитание, профессиональная компетентность, опросы, наблюдения, педагогические ресурсы, профессиональные потребности.

METHODS OF ORGANIZING THE EFFICIENCY OF INCLUSIVE EDUCATION IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL COMPETENCE OF PRIMARY TEACHERS

Abstract: This article examines the importance of improving the methodological training and professional development of primary school teachers as a scientific and pedagogical problem. It summarizes the views of foreign and domestic researchers. The principles, theoretical and pedagogical aspects of professional development of primary school teachers are scientifically based. It also provides detailed information on the need and methods for developing teachers' professional competencies in inclusive education. The need to introduce an inclusive education system in our country, the problems facing the implementation of this system and ways to overcome them are described. The content and essence of organizing non-traditional classes, allowing children involved in inclusive education in preschool and primary education to think freely, are considered. The importance of using the opportunities of children in need of special assistance in the educational process is highlighted, analyzed and recommendations are given. The issue of educating children with disabilities is becoming one of the most urgent issues today.

Keywords: inclusive education, upbringing, professional competence, surveys, observations, pedagogical resources, professional needs,

KIRISH. Bugungi rivojlanayotgan bir davrda mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta’limiga e’tibor so‘nggi yillarda eng dolzarb masala sifatida diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalar ta’limini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. 2020-yil 13-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga asosan “2020 - 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi”[1] amaliyotga tatbiq etildi. Respublikamizda demokratik jamiyat qurish, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bu xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi oldiga ham muayyan vazifalar qo‘yadi. Mazkur vazifalar umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan belgilanadi. O‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohalarida aks etadi.

Bu esa o‘z navbatida, o‘qituvchining o‘z fanini o‘qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta’lim jarayonini loyihalash, tashkil qilish va baholash uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni egallashi, shuningdek, o‘qitish va tarbiyalash jarayonini ta’lim sohasidagi innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etish, uzluksiz va tizimli o‘z-o‘zini rivojlantirishni talab etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Abdulla Avloniylarning tarbiyasining maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta’limning ta’siri to‘g‘risidagi qarashlari inklyuziv ta’lim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi.

“Odamda qanday tashxis ekanligi muhim emas. Unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va munosib hayot kechirish imkonini berish muhim” (Mariya Sibulskaya) [2]

A.V.Suvorovning ta’kidlashicha, har qanday ta’lim, shu jumladan inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan o‘quvchini o‘qitishda ijtimoiy-madaniy omillarga asoslantirilishi lozim. Ta’lim jarayonida madaniyat o‘zlashtirilmaydi, balki qayta yaratiladi. Hayot davomida o‘z-o‘zini tarbiyalash shaklida ideal tarzda davom etadigan ta’lim jarayoni natijasida har bir kishi o‘ziga xos, individual madaniyat namunasini rivojlantiradi.

A.Y.Shemanov imkoniyati cheklangan o‘quvchi o‘qitish jarayonida “maxsus madaniy ehtiyojlarini” hisobga olish zarurligini asoslaydi. Uning nuqtayi nazaricha bunday ehtiyojlarni hisobga olish muayyan munosabatlar tizimlarini, identifikatsiyalarni tashkil etuvchi elementlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, imkoniyati cheklangan o‘quvchi uchun mos keladigan madaniy muhitni tavsiflashni anglatadi. Uning ta’kidlashicha, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning nuqsoniga emas, balki qobiliyatiga e’tibor qaratish lozim .

F.T.Mirzayeva inklyuziv ta’limning interfaol muloqot, hamkorlik, loyihalash va baholashdan iborat didaktik imkoniyatlarini tahlil etib, maxsus fanlar integratsiyasini ta’minlash orqali ijtimoiy moslashuvni ta’minlash, motivatsion, refleksiv va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish mumkinligiga e’tibor qaratgan.

“Kim zukko?” mashqi.

Bu mashqda o‘quvchilar berilgan so‘zlarga hikoya matnidan so‘z birikmalarini topadilar va ularning qaysi so‘z turkumiga oid ekanligini aytadilar. So‘zlar: ayiqning, bitta, nayzalarni, baquvvat, besh-o‘n, kovagiga. O‘quvchilar javobi: Ayiqning tirnog‘i ot + ot. Bitta-bitta miltiq nayzalarni nayzalarni bog‘ladim son + ot ot + fe’l Baquvvat baquvvat tayoqlarning sifat + ot

“Raketa uchdi” o‘yini.

Raketalar shakliga savollar yozib, har ikki guruhga beriladi. Guruhdagi o‘quvchilar birin-ketin savollarga javob beradilar. Raketaga quyidagi savollar yoziladi:

1. Biz kimni do‘st deb bilamiz?
2. Sizning do‘stingiz bormi.U kim?
3. Do‘stingizni siga yoqadigan tomonlarini ayting.
4. Kitobni eng yaqin do‘st deb bilasizmi?

“Bog‘ yarat” metodi.

Ekranda bo‘sh maydon ko‘rsatiladi. Ket- ma-ket savollar beriladi. Mos tugma bosilsa, ko‘chat hosil bo‘ladi va keyingi savolga o‘tish imkoni beriladi.

“Pantomima” metodi.

O‘quvchilar guruhlarga bo‘linadilar. O‘quvchilarga “Yaxshidan bog‘ qoladi” rivoyati mazmunini ovoz chiqarmasdan pantomima ko‘rinishida ko‘rsatib bering, deb aytiladi. Guruhlar ishlarini rejalashtirib olishlari uchun 3-5 daqiqa vaqt beriladi. Ular

ovoz chiqarmasdan o'tgan mavzu pantomimasini ko'rsatib beradilar.

NATIJA VA MUHOKAMA. Boshlang'ich sinf o' qituvchilari uchun inklyuziv ta'lim samaradorligini rivojlantirishda tabaqalashgan yondashuvning muhim ahamiyati egadir. Bu, barcha o'quvchilar uchun qoniqarli va o'qish imkoniyatlarini ta'minlash, har bir shaxsga mos ta'limni berish va barcha o'quvchilar uchun mavzuni o'zlashtirishga yordam beradi. Bunday yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy-pedagogik **kompetentliklarini** rivojlantiradi. Bu **kompetentliklar,** o'quvchilarning mazmunli vaqtlarini rejalashtirish, yangi metodik usullarni amalda qo'llash, individuallashgan ta'lim dasturlarini tuzish va har bir o'quvchi uchun zarur bo'lgan yordamni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Inklyuziv ta'lim umumta'lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo'lgan ta'limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishiga oid qo'shimcha moslamalarni tashkil qilib bolalarni ta'lim olishiga qulay sharoit yaratadi.

O'quvchilar o'zaro aloqalarni oshirish, guruhda ishlash, jamoat faoliyatlariga qo'shilish va boshqa hamkorlik shakllari yordamida ularning ijtimoiy hissiyotlarini rivojlantirish muhimdir. o'quvchilarning o'zlashtirishlari va maqsadlarini qo'llab quvvatlash: Har bir o'quvchining o'zlashtirishlari, maqsadlari va istaklari bir-biriga farqli bo'ladi. Uzoq davolanayotgan bolalar va xususiy talablarga ega bo'lgan o'quvchilar bilan individual ravishda ishlash, ularni o'zlashtirishlari va maqsadlari yo'nalishida qo'llab-quvvatlash, ularning o'rganish jarayonida o'zlarini maqsadga muvofiq boshqarishlari muhimdir.

XULOSA. Jamiyatning ehtiyojlari, fan va amaliyotning rivojlanishi, inson shaxsini rivojlantirishga tobora ortib borayotgan o'qituvchilar, o'zgaruvchan ijtimoiy jarayonlar va vaziyatlarga tez va mukammal javob berish qobiliyati, o'z faoliyatini qayta qurishga tayyorligi va yangi, yanada murakkab muammolarni mohirona hal qilishga tayyorligi bilan belgilanadi. Inklyuziv ta'lim chuqur ijtimoiy jihatlarni qamrab oladi va, eng avvalo, axloqiy, moddiy, pedagogik muhit yaratilishi, har qanday bolaning ta'lim ehtiyojlariga moslashtirilishi kerak. Barcha ehtiyojlarni faqat ota-onalar bilan yaqin hamkorlikda, o'quv jarayonining barcha ishtirokchilarining yaqin jamoaviy hamkorligida qondirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Арефьев Р.С. Формирование готовности к самопроектированию коммуникативной компетентности у студентов педагогического вуза: Дисс....канд. пед. наук. - С.: 2004. - 190 с. 170

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risidagi qarori-4860 13.10.2020

3.Абрамян Г.В. Теоретические основы профессионального становления педагога в информационной среде: автореф. дисс. пед. наук. - Санкт-Петерберг, 2001. - 39 с.

4. ."Inklyuziv ta'lim : nazariya va amaliyot" . F.U. Qodirova , D.A. Pulatova. Chirchiq-2022 2-bet,180-bet

5. Ангеловски К. Учителя и инновации. Книга для учителя. -М.: Просвещение, 1991, - С.159.

6. Арефьев Р.С. Формирование готовности к самопроектированию коммуникативной компетентности у студентов педагогического вуза: дисс....канд. пед. наук. - С.: 2004. - 1 90 с.

7. Бадагуева О.Р. Формирование готовности будущего учителя к инновационной деятельности в условиях педагогического колледжа: автореф. ... дисс. пед. наук. -Улан-Удэ, 2006. -24 с.

8. Artiqboyeva Z.A. Malaka oshirish tizimida maktab matematika o‘qituvchilarining kasbiy-metodik ko‘nikmalarini takomillashtirish: ped.f.n. ... diss. - T.: 2004. - 163 b.

9. Benjamin Crowell. Newtonian Physics// Light and Matter / Fullerton, California-2012. Benjamin Crowell Revolution in PhysicsThe Modern Light and Matter Fullerton, California-2012.

10. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. /Результаты экспериментальных исследований. -М.: Директ-Медиа Паблишинг, 2008. -613

11. John Dirk Walecka. Introduction to Modern Physics// College of William and Mary:/ USA ,Jul -2008.